RAQAMLI TA’LIMDA MAKTAB O‘QUVCHILARIDA AXLOQIY ONGNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Maxmudov Abdulxalim Xamidovich
pedagogika fanlari doktori, professor,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti,
“Milliy tarbiyaning raqamli pedagogik ta’minoti” ilmiy-tadqiqot bo‘limi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli ta’lim sharoitida maktab o‘quvchilarida axloqiy ongni shakllantirishning nazariy va metodologik asoslari tadqiq etilgan. Muallif raqamli muhitning o‘quvchilar dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta’siri, kiberbulling, noto‘g‘ri axborot hamda virtual qaramlik kabi xavflarning oldini olish masalalarini yoritadi. Maqolada raqamli muhitda axloqiy ongni rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlari – onlayn muloqot madaniyati, axborotdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalari, raqamli xavfsizlik va ijtimoiy mas’uliyat hissi atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, axloqiy ong, raqamli muhit, onlayn muloqot madaniyati, raqamli xavfsizlik, ijtimoiy mas’uliyat, media savodxonlik, raqamli etika, tarbiyaviy integratsiya.

Аннотация: В данной статье исследуются теоретические и методологические основы формирования нравственного сознания у школьников в условиях цифрового образования. Автор освещает влияние цифровой среды на мировоззрение и поведение учащихся, вопросы предотвращения таких рисков, как кибербуллинг, дезинформация и виртуальная зависимость. В статье подробно анализируются основные компоненты развития нравственного сознания в цифровой среде: культура онлайн-общения, навыки правильного использования информации, цифровая безопасность и чувство социальной ответственности.

Ключевые слова: цифровое образование, нравственное сознание, цифровая среда, культура онлайн-общения, цифровая безопасность, социальная ответственность, медиаграмотность, цифровая этика, образовательная интеграция.

Abstract: This article investigates the theoretical and methodological foundations of forming moral consciousness in schoolchildren within the context of digital education. The author highlights the im-

pact of the digital environment on students' worldview and behavior, as well as issues regarding the prevention of risks such as cyberbullying, misinformation, and virtual addiction. The article provides a comprehensive analysis of the key components of developing moral consciousness in a digital environment, including online communication culture, information management skills, digital security, and a sense of social responsibility.

Keywords: digital education, moral consciousness, digital environment, online communication culture, digital security, social responsibility, media literacy, digital ethics, educational integration.

Hozirgi kunda maktab o‘quvchilari hayotida raqamli texnologiyalar muhim o‘rin egallamoqda. Internet resurslari, ijtimoiy tarmoqlar, ta’lim platformalari va mobil ilovalar o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga keng kirib kelgan. Biroq, raqamli muhitning kengayishi bilan bir qatorda kiberbulling, noto‘g‘ri axborot, virtual qaramlik va axloqiy muammolar ham paydo bo‘lmoqda.

Shu sababli maktab ta’limi tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan birga, o‘quvchilarda axloqiy ongni shakllantirishni ham ustuvor vazifa sifatida qarash zarur [1].


Avvalambor, raqamli muhitga to‘xtalib o‘tamiz. Raqamli muhit – bu internet, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ta’lim platformalari, messenjerlar, o‘yinlar va sun’iy intellektga asoslangan xizmatlar orqali o‘quvchining axborot qabul qilishi, muloqoti va faoliyati amalga oshadigan virtual makondir. U o‘quvchining dunyoqarashi, xulq-atvori va qadriyatlar tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli ta’lim o‘quvchilarda mustaqil bilim olish, axborotni tez qabul qilish va multimediali resurslardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Biroq, nazoratsiz raqamli muhit o‘quvchilarda diqqat parokandaligi, virtual qaramlik va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin [2].

Shu bois, ta’lim jarayonida raqamli vositalardan maqsadli va pedagogik nazorat asosida foydalanish muhim hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun samarali qurollardan biri – bu o‘quvchilarning axloqiy ongini oshirish.

Maktab yoshidagi bolalarda axloqiy ong – bu ijtimoiy qoidalarni an glash, yaxshini yomondan farqlash, jamoada o‘zini to‘g‘ri tutish va mas’uliyatli qaror qabul qilish qobiliyatidir. Bu davrda shaxs shakllanishi faol kechadi va tarbiyaviy ta’sir ayniqsa muhim ahamiyatga ega [3, 4].

Raqamli muhitda axloqiy ong quyidagi tarkibiy qismlar orqali rivojlanadi (1-rasm).



Onlayn muloqot madaniyati – o‘quvchining internet muhitida boshqalar bilan hurmat, odob va axloqiy me’yorlarga muvofiq muloqot qilish qobiliyatidir. U quyidagilarda namoyon bo‘ladi: haqorat, kamsitish va zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik; fikrni etik, dalillarga tayanilgan holda bayon etish; boshqalar nuqtayi nazarini qabul qila olish; virtual muloqotda ham inson qadrini ustuvor deb bilish. Onlayn muloqot madaniyati axloqiy ongning amaliy ifodasi bo‘lib, o‘quvchining raqamli muhitdagi xulq-atvorini belgilaydi.

Axborotdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalari o‘quvchining internetdagi axborotni qidirish, tanlash, tahlil qilish va etik asosda qo‘llash layoqatini qamrab oladi. Bu ko‘nikmalar: ishonchli va ishonchsiz manbalarni farqlash;

feyk axborotga tanqidiy yondashish; plagiatdan qochish, manbani ko‘rsatish; axborotdan zarar keltirmaslik maqsadida foydalanish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur ko‘nikmalar axloqiy ongni mas’uliyatli axborot iste’moli darajasiga olib chiqadi.

Raqamli xavfsizlikka rioya qilish – o‘quvchining o‘zining va boshqalarning shaxsiy ma’lumotlari, huquqlari va psixologik holatini himoya qilishga qaratilgan ongli faoliyatidir. Bu: shaxsiy ma’lumotlarni oshkor qilmaslik; kibertahdidlar va firibgarliklarni tanish; zararli kontentdan himoyalanish;

internetda o‘z xatti-harakatlari oqibatini anglash orqali amalga oshadi. Raqamli xavfsizlik axloqiy ongning o‘z-o‘zini nazorat qilish va vijdonli qaror qabul qilish jihatini shakllantiradi.

Ijtimoiy mas’uliyat hissi – o‘quvchining raqamli muhitdagi har bir harakati jamiyat, guruh va shaxslarga ta’sir ko‘rsatishini anglashi bilan bog‘liq. U:

onlayn faollikda ijobiy ijtimoiy munosabatlarni qo‘llab-quvvatlash; nafrat, yolg‘on va manipulyatsiyaga qarshi turish; foydali va ma’rifiy kontent yaratish;

jamoaviy manfaatni shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy mas’uliyat hissi raqamli muhitda axloqiy ongning yetuklik darajasini belgilaydi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan birga, o‘quvchilarda axloqiy ongni shakllantirish mexanizmlariga to‘xtalib o‘tamiz [5].

Tarbiyaviy integratsiya. Axloqiy tarbiyani barcha fanlar mazmuniga kiritish orqali kompleks ta’sirga erishish mumkin. Masalan:

adabiyot darslarida axloqiy qahramonlar obrazini tahlil qilish; informatika darslarida raqamli etika qoidalarini o‘rgatish; tarix fanlarida ijtimoiy mas’uliyat mavzularini muhokama qilish.

Faol ta’lim metodlari. Maktab o‘quvchilari uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi: rolli o‘yinlar; vaziyatli topshiriqlar; guruhli loyihalar; onlayn muhokamalar; multimediali topshiriqlar.

Bu usullar o‘quvchilarni faol ishtirokchiga aylantiradi. Kompetensiyaviy yondashuv. O‘quvchilarda quyidagi kompetensiyalar shakllantiriladi: axborotni tanqidiy baholash; internet xavfsizligiga rioya qilish; axloqiy qaror qabul qilish; onlayn jamoada muloqot qilish madaniyati.

Amaliy-metodik mexanizmlar. Maktab amaliyotida quyidagi choralar tavsiya etiladi:

“Raqamli etika” mavzusida sinf soatlari o‘tkazish; ota-onalar uchun ma’rifiy seminarlar tashkil qilish; maktabda mediasavodxonlik klublari ochish; o‘quvchilar faoliyatini pedagogik monitoring qilish; bolalar uchun mo‘ljallangan raqamli kontentni saralash.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli ta’limda maktab o‘quvchilarining axloqiy ongini shakllantirish samarali bo‘lishi uchun ta’lim va tarbiya jarayonlari uyg‘un ravishda tashkil etilishi lozim. Pedagogik nazorat, ota-ona hamkorligi va innovatsion metodlar birgalikda qo‘llanilganda barqaror ijobiy natijaga erishish mumkin.

Raqamli muhitda axloqiy ongga ega bo‘lgan o‘quvchi – kelajak jamiyatining ma’naviy barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayupov R.H., Tursunov S.Q. Raqamli texnologiyalar: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, Nodirabegim, 2020. – 377 b.
2. Mamatov D., Bekchanova Sh. Masofaviy ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish metodikasi: Monografiya. – Toshkent: Ilm ziyo zakovat, 2020.
3. Maxmudov A.X., Saydaliev A.I. Raqamli dunyo va bola tarbiyasi: Metodik qo‘llanma. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 100 b.
4. Maxmudov A.X. Ta’limni raqamlashtirishning didaktik tamoyillari // Belarus-O‘zbek ilmiy-metodik jurnali. – 2023. – № 1. – B. 25-28.
5. Fayzieva M.R. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt. – T.: Lesson Press, 2023. – 12-25 b.